



## TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA ISTE'MOLCHI XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

**Xalmurzayeva Naima Fatixovna**  
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti  
ORCID: 0009-0004-9176-6825  
[Naima1988@mail.ru](mailto:Naima1988@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallashtirish natijasida ta'lim tizimi boshidan kechirgan o'zgarishlar ta'kidlanib, ushbu sohadagi hozirgi tendensiyalar ko'rib chiqildi. Shuningdek, ushbu o'zgarishlarning ijobiy va salbiy tomonlari ta'kidlanib, axloqiy, sifatli va arzon o'quv standartlarining ahamiyatli ekanligiga e'tibor qaratilmoqda. Har bir mamlakatning milliy xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi, chunki ular ta'lim tizimining tuzilishi va ustuvorliklariga ta'sir ko'rsatadigan ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, shaxs va jamiyatni rivojlantirishga ko'maklashadigan yanada samarali va innovatsion ta'lim tizimlarini yaratish uchun turli mamlakatlarning ta'lim xizmatlari tajribasini o'rganish zarurligi haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zlar:** bakalavriyat, magistratura, doktorantura, talabalar mobilizatsiyasi, sifat standartlari, ta'lim xizmatlari modeli, tadqiqot faoliyati.

## ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ НА РЫНКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

**Халмурзаева Наима Фатиховна**  
Ташкентский международный университет Кимё

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные тенденции в сфере образования, подчеркивая изменения, которые перетерпела система в результате глобализации и коммерциализации. Также, выделяются положительные и отрицательные аспекты этих изменений, обращая внимание на важность этических, качественных и доступных стандартов обучения. Рассматриваются и национальные особенности каждой страны, ведь они играют ключевую роль в формировании рынка образовательных услуг, влияя на структуру и приоритеты системы образования. Также говорится о необходимости изучения опыта образовательных услуг разных стран для создания более эффективных и инновационных систем образования, способствующих развитию личности и общества.

**Ключевые слова:** бакалавриат, магистратура, докторантура, мобилизация студентов, стандарты качества, модель образовательных услуг, исследовательская деятельность.

## THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN SHAPING CONSUMER BEHAVIOR IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET

***Khalmurzayeva Naima***

*Kimyo International University in Tashkent*

**Abstract.** *This article examines current trends in education, highlighting the changes that the system has undergone as a result of globalization and commercialization. It also highlights the positive and negative aspects of these changes, drawing attention to the importance of ethical, quality and accessible training standards. The national characteristics of each country are also considered, because they play a key role in shaping the market for educational services, influencing the structure and priorities of the education system. It also talks about the need to study the experience of educational services in different countries to create more effective and innovative education systems that contribute to the development of the individual and society.*

**Keywords:** *bachelor's, master's, doctoral, student mobilization, quality standards, educational service model, research activity.*

### **Kirish.**

Zamonaviy ta'lim tizimi tijoratlashtirish yo'nalishida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ta'lim muassasalari yetkazib beruvchi sifatida, keng doiradagi odamlar esa iste'molchi sifatida namoyon bo'lishi, ta'lim xizmatlari ochiq bozorda talab va taklif ob'ektiga aylanganini anglatadi. XX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa keyingi o'n yilliklarda ta'lim o'ziga xos xalqaro biznesga aylandi. Bu globallashtirishning kuchayishi, jahon iqtisodiyotining kengayishi, shuningdek, xalqaro investitsiyalar va savdoga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida ta'lim xizmatlari, ayniqsa oliy ta'lim sohasida xalqaro almashinuvning oshishiga yordam berdi. Ushbu jarayon ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Bir tomondan, u turli mamlakatlar va madaniyatlardagi odamlar uchun ta'lim imkoniyatlarining xilma - xilligi va mavjudligiga hissa qo'shishi mumkin, boshqa tomondan esa ta'lim sohasida tijoratlashtirishning kuchayishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa ta'lim sifati va hayotning barcha qatlamlari uchun mavjudligiga ta'sir qilishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ta'lim sohasidagi bunday o'zgarishlar axloqiy, sifatli va arzon ta'lim standartlariga e'tibor berishni talab qiladi, bu esa barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Har bir mamlakatning milliy xususiyatlari ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xususiyatlar ta'lim tizimining tuzilishi va ustuvorliklarini belgilaydigan madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, ba'zi mamlakatlar an'anaviy o'qitish usullarini juda qadrlashlari va qat'iy baholash tizimiga ega bo'lishlari mumkin, boshqalari esa innovatsiyalarni va bilimlarni amaliy qo'llashni ta'kidlashlari mumkin. Ushbu farqlar, shuningdek, ta'lim dasturlarining mavjudligiga, ta'limni moliyalashtirishga, shuningdek, talabalar faoliyatini baholash yondashuvlariga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi ta'limni rivojlantirishning milliy strategiyalari, mehnat bozori ehtiyojlari va jamoatchilik talablari bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, davlatning milliy xususiyatlari har bir mamlakatda ta'lim tizimlarining rivojlanishi va tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aynan shuning uchun biz turli mamlakatlarning ta'lim xizmatlari tajribasini ko'rib chiqishimiz kerak. Chunki ta'lim xizmatlarining jahon modellarini o'rganish shaxs va umuman jamiyatni rivojlantirishga hissa qo'shadigan yanada samarali, innovatsion va moslashuvchan ta'lim tizimlarini yaratishga yordam beradi.

### Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda global ta'lim tizimi tobora ko'p milliard dollarlik sanoatga aylanib bormoqda (Chinaeva, 2017). Ushbu jarayon talabalar sonining ko'payishi, ta'limga bo'lgan talab va ta'lim xizmatlarini tijoratlashtirish bilan bog'liq. Ta'lim olish imkoniyatining kengayishi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, boshlang'ich va o'rta ta'lim darajasida ham, oliy o'quv yurtlarida ham talabalar sonining ko'payishiga olib kelamoqda. Bu ta'lim xizmatlariga ko'proq talabni keltirib chiqaradi va ushbu sohaning rivojlanishini rag'batlantiradi. Aynan shu sababli ta'lim xizmatlari tushunchasi ta'lim, iqtisodiyot, sotsiologiya va boshqa fanlar sohasidagi ko'plab olimlarning ishlarini o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq jarayonlarni, ularning sifatini, mavjudligini, jamiyat va iqtisodiyot rivojiga ta'sirini, shuningdek ushbu xizmatlarni ish beruvchilarning talablariga muvofiqligini tushunishga qaratilgan.

Ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jihatlariga Bounken, Viig, Vitzel, Voul, Nelson, Nonaka, Takeuchi, Tis, Vorner, Harrington, Shumpeter, Guryanova, Davidova, Zimniy, Lukashenko, Mironova, Efendieva va boshqalarning tadqiqot ishlari bag'ishlangan. Lukashenko (2004) ta'lim xizmatini quyidagicha ta'riflaydi: "Ta'lim xizmati iqtisodiy kategoriya sifatida ushbu aralash mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste'mol qilish jarayonlarida odamlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar yig'indisidir".

Olimlar tomonidan ta'lim xizmatlarini o'rganish ta'lim sohasidagi globallashuv jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim xizmatlarining globallashuvi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro bilim almashinuvi tufayli ularning global miqyosda taklif va talabini kengaytirish, geografik va madaniy chegaralarni yengib o'tishini anglatadi.

Global axborot oqimlari orqali bilimlarni birlashtirish jarayoni ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ushbu sohada iste'mol madaniyati muammosiga e'tibor qaratadi. Vende (2003) o'z asarlarida ta'kidlaganidek, global ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalardan biri bu globallashuv bo'lib, u bugungi kunda dunyoni o'zgartiradigan asosiy kuchdir. Aynan shu ta'sir nafaqat ta'lim dasturlarining xususiyatlari va ularning xilma-xilligi, balki ta'lim xizmatlari iste'molchilarining afzalliklari bilan ham namoyon bo'ladi.

Boshqa bozorlar singari, ta'lim bozori ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim xizmatlari har bir ta'lim tizimining mahalliy ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, jahon axborot oqimlari ta'lim xizmati iste'molchilarining yangi so'rovlari va afzalliklarini shakllantiradi, talab tarkibida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aydrus va Fillipov (2008) ta'kidlaganidek, oliy ma'lumot global tendentsiyalarning bevosita va bilvosita ta'siri ostida jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Kundalik iste'mol bozorlaridagi xariddan farqli o'laroq, ta'lim xizmatlarini tanlash har bir talaba uchun nisbatan individual va o'ziga xosdir. Shuning uchun ham aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalari murakkab va o'zgaruvchan sharoitda faoliyat ko'rsatayotgani uchun, tashqi ta'sirlarga tez va samarali strategik javob berish zarurati ortib bormoqda (Uddin va boshq., 2015). Informatsion oqimlar ta'lim imtiyozlariga ta'sir qilishi mumkin, ammo ta'lim imkoniyatlarining xilma-xilligi individuallashtirishning yuqori darajasini saqlab qoladi, bu esa talabalarga o'zlarining noyob maqsadlari va ehtiyojlariga mos keladigan optimal ta'lim yo'llarini topishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, ko'plab universitetlar o'zlarining moliyaviy barqarorligi haqida qayg'urishi kerakligi sababli biznes sifatida qarashlari kerak (Becker, 2009).

Ushbu sohadagi xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global axborot oqimlari va iste'mol madaniyatidagi o'zgarishlar ta'lim xizmatlarining talabi va tuzilishiga ta'sir qiladi, ta'lim yo'lini tanlash jarayonida talabalarning umid va istaklariga ham o'zgarish kiritadilar.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida ta'lim xizmatlari bozorida iste'molchilar xulq-atvorini shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanilgan. Shuningdek, bilishning tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash kabi umumiy ilmiy usullari, hamda umumiy iqtisodiy usullar: tasniflash, guruhlash va boshqalardan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon ta'lim bozori jadal suratlarida o'sib bormoqda, bu davlatlar o'rtasida ta'lim xizmatlari sohasidagi moliyaviy oqimlarni jalb qilish va ularning geosiyosiy mavqeini mustahkamlash uchun shiddatli raqobat maydoniga aylantirmoqda. Xorijiy mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlash ko'plab yetakchi davlatlar uchun asosiy ustuvor vazifaga aylandimoqda. Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Rossiya va Qozog'iston kabi mamlakatlar xalqaro talabalar uchun ta'lim dasturlarini faol rivojlantirib, jahon ta'lim maydonida o'z ishtirokini kuchaytirib bormoqda. Maqolada aynan ushbu mamlakatlarning ta'lim tizimlari tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qildi.

Uzoq yillik ta'lim tarixiga ega bo'lgan Angliya dunyoning turli burchaklaridan kelgan ko'plab talabalarning e'tiborini tortadigan noyob va xilma-xil tizimdir. Angliya oliy ta'lim tizimi an'analar va standartlar shakllangan boy tarixga ega. Oksford va Kembrij kabi universitetlar oliy ta'limning ramzi hisoblanib, yuqori akademik standartlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Angliyadagi oliy ta'lim tizimida bir necha muhim bosqichlar mavjud:

**Bakalavr** darajasi (Bachelor's degree): bakalavriat dasturi odatda uch yil davom etib, bakalavr darajasini berish bilan yakunlanadi (masalan, madaniyat bakalavri yoki fan bakalavri). O'rganilayotgan fanlarning soni va tabiati bilan belgilanadigan tayyorgarlik mazmuniga qarab, bakalavr darajasi uchun ikkita asosiy dastur mavjud. Birinchi turi -bu "o'tish" yoki "oddiy" bakalavr darajalari uchun dastur bo'lib, ular yakuniy imtihonlar topshiriladigan bir yoki ikki xil tegishli fanlar bo'yicha profilli o'qishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi tur-bakalavr darajasi uchun imtiyozli dastur bo'lib, u bittadan uchtagacha profilli va bir nechta qo'shimcha fanlarni chuqur o'rganishni ta'minlagani uchun, u fanlar bo'yicha yakuniy imtihonlar topshiriladi (Rozenfeld, Roshchupkin, 2006).

**Magistratura** (magistr darajasi): bakalavr darajasini tugatgandan so'ng, talabalar odatda bir yil davom etadigan magistrlik dasturini boshlashlari mumkin. Bu ularga magistr darajasini beradi (masalan, san'at magistri yoki fan magistri).

**Doktorantura** (Doctorate / Ph.D.): o'qishni davom ettirishga qaror qilganlar doktorlik dasturiga kirishlari mumkin, bu ta'limning eng yuqori darajasidir. Bu odatda tadqiqotchilardan dissertatsiya yozishni talab qiladi. Bitiruvchilari falsafa doktori (Ph.D.) unvonini oladilar.

Buyuk Britaniyadagi oliy ta'lim, yuqori darajadagi tadqiqot faoliyati bilan ajralib turadi va ko'pincha talabalar bakalavriat bosqichidanoq ilmiy loyihalarga jalb qilinadi. Angliyadagi universitetlar ko'pincha akademik obro'si bilan tanilgan va ularning aksariyati dunyodagi eng yaxshi ta'lim muassasalari qatoriga kiradi.

Voronin va Idrisovning (2018) fikriga ko'ra Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi muvaffaqiyatining eng muhim elementi talabalarni keyingi ishga joylashish va faoliyat yo'nalishiga aniq yo'naltirilishidir. Universitetlar korxonalar bilan hamkorlik aloqalarini olib borib, teskari aloqa yordamida bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari haqida batafsil ma'lumot oladilar. Ish beruvchilar bilan bu kabi aloqadlarni o'rnatish talabalarni bitirgandan keyin deyarli to'liq ish bilan ta'minlashga yordam beradi.

Angliyaning ta'lim tizimi iste'molchilar talablariga javob berishi tabiiy holdir. Angliyada ta'lim xizmatlari bozorida iste'molchilarning xatti-harakatlarini shakllantirish uchun ko'pincha quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. **Ta'lim xizmatlari bozori:** Angliyada jamoat va xususiy maktab, universitet va kollejlarni o'z ichiga oladigan faol ta'lim bozori mavjud. Ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat ta'lim sifati va iste'molchilar ehtiyojini qondirishga yordam beradi.

2. **Teskari aloqa va sifatni baholash tizimi:** muntazam ravishda talabalar bilan olib boriladigan teskari aloqa va o'quv dasturlarning sifatini baholashligi yuqori darajadagi standartlarni ushlab turishga va talabalarning o'zgaruvchan talabiga tez javob berishga yordam beradi.

3. **Shaffoflik vanformatsiya:** obuyuk Britaniyadagi Braziliya institutlari o'z dasturlari, o'qish xarajatlari, talablari va samaradorligi to'g'risida shaffof ma'lumotlarni taqdim etishlari shart, bu esa iste'molchilarga ma'lumotli tanlov qilish imkonini beradi.

4. **Individual e'tiborga urg'u berish:** ta'lim ko'pincha talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi. Bunga shaxsiy maslahat, guruh loyihalari va individual ta'limning boshqa shakllari kirishi mumkin.

5. **Xilma-xillik va inklyuzivlik:** Buyuk Britaniyadagi institutlari talabalarning madaniyati, tillari va sharoitlarining xilma-xilligini aks ettiruvchi muhit yaratib, xilma-xillik va inklyuzivlikni faol ravishda rag'batlantiradilar.

6. **Amaliyot:** kasbiy amaliyot imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarga amaliy tajriba orttirishga va kelajakdagi kasblariga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

7. **Karyera rivojlanishini qo'llab-quvvatlash:** Ta'lim muassasalari talabalarga kasbiy yo'llarini rivojlantirish va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun kasb bo'yicha maslahat xizmatlarini taqdim etadilar. Ushbu usul va yondashuvlarni o'rganish va qo'llash ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda ta'lim sohasida iste'molchining ijobiy xulq-atvorini shakllantirishda foydali bo'lishi mumkin.

Angliyadan farqli o'laroq, Germaniya yanada moslashuvchan tizimga ega. Bakalavriyat odatda 3 yil, magistratura 2 yil davom etadi. Doktoranturadan oldin magistrlik darajasi mavjudligi talab qilinib, u ko'pincha ilmiy tadqiqotlarga qaratilgan. Oliy ta'lim tizimining asosini klassik (universität), texnik (Technische Universität) va umumiy (Gesamthochschulen) universitetlar, shuningdek maqomi universitetga tenglashtirilgan oliy ta'lim muassasalari tashkil etadi: pedagogika institutlari (pädagogische Hochschulen), tibbiyot kollejlari, falsafiy - diniy va cherkov kollejlari (Theologische Hochschule) hamda kollejlari (Korlyakova, Shatskaya 2014). Germaniyaning ko'plab universitetlari juda boy tarixga ega. Masalan, eng qadimgilari-1386 yilda tashkil etilgan Geydelberg universiteti va 1388 yilda tashkil etilgan Kyoln universitetini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Germaniya oliy ta'lim tizimi o'zining tuzilishi, tamoyillari va tashkil etilishi bilan boshqa mamlakatlar tizimlaridan farq qiladi. Misol uchun, Germaniyada oliy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri "akademik erkinlik" bo'lib, u talabalarning kurs va fanlarni mustaqil tanlashi mumkinligini nazarda tutadi. Ushbu fanlarni ular o'qish davomida o'rganganlaridan so'ng ularning diplomlarida aks ettiriladi.

Fink (2017) tadqiqotiga ko'ra, Germaniyada bakalavriyat bosqichida klassik universitet ta'limi ikki bosqichni o'z ichiga oladi: universitetda (Studium) va ikki yillik amaliyot (Referendariat). Ikkala bosqich ham Staatsexamen deb nomlanuvchi davlat imtihonini topshirish bilan yakunlanadi. Kudashevaning fikriga ko'ra, Germaniyaning oliy ta'lim tizimining yuqori darajasi quyidagi asosiy sabablar bilan belgilanadi: turli xil innovatsion o'quv texnologiyalarini ishlab chiqish va oliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish va raqobatbardosh mutaxassislarining ta'limi va amaliyoti bilan muntazam hamkorlik qilish. Biz nemis ta'lim tizimini butun dunyo bo'ylab ko'plab talabalar uchun noyob va jozibali qiladigan bir nechta xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- **Nemis va ingliz tillarida o'qitish:**

Ko'pgina dasturlar nemis tilida taqdim etiladi, ammo so'nggi yillarda xalqaro talabalarni jalb qilish uchun ingliz tilidagi dasturlar ko'paymoqda.

- **Ko'plab talabalar uchun bepul ta'lim:**



Ko'pgina nemis universitetlarida aksariyat talabalar, shu jumladan chet elliklar uchun kichik ma'muriy to'lovlardan tashqari o'qish bepul.

**- "Dual ta'lim" printsipi:**

Germaniyada "Dual ta'lim" (Dual Education System) prinsipi amal qiladi, unda talabalar universitetda nazariy ta'lim va ish joyida amaliy tajriba oladilar.

**- Tadqiqot faoliyati:**

Germaniya universitetlari tadqiqotga yo'naltirilganligi bilan mashhurdir. Ularning aksariyati sanoat va boshqa tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

**- Tuzilishi va boshqaruvi:**

Germaniyadagi universitet tizimini quyidagicha tavsiflash mumkin: universitet, texnik universitet va amaliy fanlar. Ta'lim muassasasining har bir turi o'ziga xos xususiyat va ixtisoslashuv sohasiga ega.

**- Qat'iy sifat standartlari:**

Germaniya oliy ta'lim tizimi yuqori sifat standartlariga rioya qilgani uchun universitetlar jahon standartlariga javob beradigan ta'lim berishga intiladi.

Ammo AQShda demokratiya oliy ta'lim sohasida ham namoyon bo'ladi. Pavlova va Nikolaevning so'zlariga ko'ra (2015), AQSh hozirda dunyodagi yetakchi oliy ta'lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan: uning universitetlari an'anaviy ravishda dunyoning turli reytinglarida yetakchi o'rinni egallaydi, u ko'plab Nobel mukofoti sovrindorlarini tarbiyalagan, chet ellik talabalar soni bo'yicha yetakchilik qiladi va yirik moliyalashtirish manbalariga egadir.

AQShda oliy ta'lim ikki shaklda namoyon bo'ladi - universitet va kollej. 4 yillik bakalavriat dasturlarini taklif qiladigan oddiy kollejlardan tashqari, 2-3 yillik kurslarga ega bo'lgan mahalliy kollejlari (community colleges) va kasb - hunar ta'limi muassasalari (vocational educational institutions), shuningdek, bir necha haftadan bir necha oygacha davom etadigan malaka oshirish dasturlari mavjud. Shuningdek, kollejlari ixtisoslashuvga ko'ra bo'linishi ham mumkin, masalan san'at kollejlari, gumanitar fanlar kollejlari va boshqalar (Potapov va Hakimullin, 2017).

AQShda, asosiy ilmiy daraja bakalavr darajasi bo'lib, uni kollejda ham, universitetda ham olish mumkin. Odatda bakalavr darajasi 4 yildan 5 yilgacha o'qishni talab qiladi. Qo'shimcha 1-2 yillik o'qish, shu jumladan ilmiy ishni yozish va himoya qilish, magistr darajasini olish imkonini beradi. Biroq, tibbiyot, farmatsevtika, huquqshunoslik, qurilish va muhandislik kabi ba'zi mutaxassisliklar uchun magistr darajasini olish uchun o'qish muddati 6-8 yil bo'lishi mumkin. Keyingi bosqich doktorantura. Doktorantura eng yuqori ta'lim darajasi bo'lib, odatda 5 yildan 7 yilgacha davom etadi. Jarayon o'qitish, tadqiqot dissertatsiyasini tayyorlash va imtihon kengashi oldida himoya qilishni o'z ichiga oladi. Falsafa fanlari doktori (Ph.D.) ushbu toifadagi eng keng tarqalgan darajalardan biridir.

O'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, AQSh oliy ta'lim tizimi har tomonlama o'rganish, tanqidiy fikrlash va umumiy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan liberal ta'limga urg'u beradi. Bundan tashqari, an'anaviy kampus dasturlari, onlayn kurslar, kechki va masofaviy dasturlar kabi ta'limning ko'plab shakllari mavjuddir.

Rossiyada ham oliy ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli xil ta'lim dasturlari va ta'lim muassasalari asosida amalga oshiriladi. Irkutskaya (2011) fikriga ko'ra, Rossiya ta'limi madaniy va pedagogik milliy an'analarga asoslangan bo'lib, chuqur tarixiy ildizlarga ega. Rossiyadagi oliy ta'lim tizimining bir nechta asosiy xususiyatlari mavjud:

**1. Ta'lim muassasalarining turlari:**

- **Universitetlar:** turli xil ta'lim dasturlarini taqdim etib ko'plab fakultet va institutlarni qamrab olishi mumkin.

- **Institutlar:** ma'lum bilim sohasiga (masalan, tibbiyot, texnologiya, san'at) e'tibor qaratishi mumkin bo'lgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari.

- **Akademiyalar:** ko'pincha harbiy ta'lim, san'at va boshqa sohalarga ixtisoslashgan muassasalar.

- **Kollejlar:** odatda amaliy va ixtisoslashtirilgan ta'limni qisqartirilgan muddatda beradi.

## 2. Ta'lim darajalari:

- **Bakalavriyat:** bakalavriyat dasturlari odatda 4 yil davom etadi.

- **Magistratura:** magistratura dasturlarining davomiyligi har xil, lekin odatda 2 yilni tashkil etadi.

- Aspirantura (doktorantura): fan nomzodi (Ph.D.) va qo'shimcha 3-4 yillik o'qishni talab qiladi.

## 3. Davlat va xususiy ta'lim muassasalari:

Rossiyada ham davlat, ham xususiy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, Davlat ta'lim muassasalari odatda arzonroq ta'limni taklif qiladi. Xususiy muassasalarda ko'proq ixtisoslashgan bo'lsa-da qimmatroq hisoblanadi.

## 4. Bepul ta'lim:

Ba'zi davlat universitetlari davlat tomonidan moliyalashtiriladigan joylardan foydalangan holda bepul ta'limni taklif qiladi. Xususiy ta'lim muassasalari esa, odatda to'lovni talab qiladi.

## 5. Kredit tizimi:

Rossiya ta'lim muassasalaridagi kredit tizimi talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha fanlar va kurslarni tanlash imkonini beradi. Bu xususiyatlar Rossiyadagi oliy ta'limning xilma-xil imkoniyatlari mavjudligini aks ettirib, talabalarga kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun turli imkoniyatlar beradi.

Agar biz Qozog'istonning oliy ta'lim tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bir necha sobiq sovet respublikalari orasida Qozog'iston bozor sharoitlariga muvaffaqiyatli moslasha olganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Qozog'iston ta'lim sohasidagi hujjatlarga amal qiladi (Evropa mintaqasida oliy ta'lim bilan bog'liq malakalarni tan olish to'g'risidagi Lissabon Konvensiyasi; Boloniya deklaratsiyasi va boshqalar) (Kim va Troitskiy, 2016). Qozog'iston Evropada oliy ta'limning yagona standartlari va tan olinishini ta'minlash uchun mo'ljallangan Boloniya jarayonini amalga oshirdi. Bu, jarayon kredit tizimidan foydalanish va uch bosqichli ta'lim tuzilmasini (bakalavriyat, magistratura, doktorantura) qo'llashni o'z ichiga oladi.

Qozog'iston Respublikasida oliy ta'lim tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda davlat va xususiy ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Qozog'iston ta'lim muassasalari tizimi quyidagilardan iborat:

- **Universitet:** turli xil ta'lim dasturlarini taqdim etib, turli fakultet va institutlarni o'z ichiga olishi mumkin;

- **Institutlar:** ma'lum bilim sohaslariga (tibbiyot, texnologiya, san'at va boshqalar) e'tibor qaratadigan ixtisoslashtirilgan o'quv yurtlari;

- **Akademiya:** ko'pincha harbiy ta'lim yoki san'at kabi tor sohalarda ixtisoslashgan muassasalar.

Oliy ta'lim tizimi biznikiga o'xshab uch bosqichga bo'linadi: bakalavriyat (bakalavr dasturlari odatda 4 yil davom etadi), magistratura (magistratura dasturlari muddati o'zgarib turadi, lekin odatda 1-2 yil davom etadi) va doktorantura (Ph.D. unvonini olish imkonini beradi hamda qo'shimcha 3-4 yillik o'qishni talab qiladi).

Shuningdek, Qozog'istonning ko'plab universitetlari xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilib, xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etadi. Mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda, mamlakat iqtisodiyotida talab katta bo'lgan sohalarda kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yuqoridagi xususiyatlar Qozog'istondagi oliy ta'lim tizimini ajratib turadi hamda uning zamonaviy standartlarga sodiqligini, xilma-xilligi va mehnat bozori ehtiyojlariga mos ekanligini aks ettiradi.

## Xulosa va takliflar.

Biz davlatlar integratsiyalashgan va turli sohalarda globallashtirishga yuz tutayotgan zamonaviy dunyoda yashayapmiz. Bu esa ta'lim xizmatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shunday ekan, ta'lim xizmatlari sohasini iste'molchilar uchun yanada jozibador qilmoqchi bo'lsak, xorij tajribasini o'rganishimiz shart deb o'ylayman.

Chegaralar yo'qolib borayotgan dunyoda oliy ta'lim sohasini raqobatbardosh qilishimizga chet el tajribasini o'rganish yordam beradi. Tarixan, mamlakatimizdagi oliy ta'lim tizimi AQSh, Germaniya yoki Angliya kabi o'z tarixi bilan maqtana olmaydi. Shuning uchun biz ulardan o'zimizga mos keladigan eng yaxshi tomonlarni olishimiz kerak. Aks holda, talabalar mobilligi tufayli ko'pchilik talabalarimizni yo'qotishimiz mumkin. Lekin biz ularning tajribasini o'rganib, oliy ta'lim iste'molchilari uchun shart-sharoitlarni ulardan ko'ra jozibadorroq qilishimiz joizdir. Zero, har yili ta'lim xizmatlariga talab yil sayin ortib bormoqda.

Xorijiy tajriba integratsiyasi ta'lim sifatini oshirish, talabalar uchun jozibadorlikni oshirish va ta'lim xizmatlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish orqali katta foyda keltirishi mumkin. Xorijiy tajribani moslashtirishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan bir nechta sohalarga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- **Ta'limda moslashuvchanlik va innovatsiyalar:** moslashuvchan ta'lim dasturlari, onlayn ta'lim va innovatsion o'qitish usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan mamlakatlar amaliyotini o'rganish;

- **Xalqaro hamkorlik:** talabalar almashinuvi, qo'shma dasturlar va ilmiy loyihalar uchun xorijiy universitetlar va institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- **Ko'p tillilik va madaniyatlararo ta'lim:** bir nrcha tilni o'rganishni va talabalarning madaniyatlararo vakolatlarini rivojlantirishga yordam beradigan dasturlarni qo'llab-quvvatlash;

- **Amaliy tajribaga e'tibor berish:** talabalarni haqiqiy mehnat bozori talablariga tayyorlash uchun o'qitish, amaliyot va loyiha ishlarining amaliy jihatlarini amalga oshirish;

- **Davlat va xususiy qo'llab-quvvatlash:** kirish imkoniyati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun oliy ta'limni davlat va xususiy qo'llab-quvvatlash modellarini o'rganish;

- **Talabalarning harakatchanligini qo'llab-quvvatlash:** almashinuv dasturlari, ta'lim sayohatlari va talabalar uchun chet elda o'qish imkoniyatlarini ishlab chiqish;

- **Sifatga e'tibor qaratish:** ta'lim sifatini baholash va ta'minlash usullarini o'zlashtirish, jumladan, dasturlar va ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish;

- **Mehnat bozori talablariga moslashish:** mehnat bozori qanday ko'nikma va malakalarni talab qilishini o'rganish va o'quv dasturlarini shu talablarga muvofiqlashtirish.

Ilg'or tajribalarni o'rganish va xalqaro tajribaga tayanish ta'lim muhitini sezilarli darajada boyitishi va talabalarni globallashtirgan dunyoda muvaffaqiyatli karyeraga tayyorlashi mumkin.

#### **Adabiyotlar/Литература/Reference:**

Becker, R.F.J. (2009). *States, Markets and Higher Education Reform: The Netherlands and England. In Globalisation, Policy and Comparative Research: Discourses of Globalisation, edited by J. Zajda, and V. Rust, 157-170. Berlin, Heidelberg, Dordrecht, New York: Springer Science and Business Media B.V.*

Fink D.A. (2017) *Education system in the Federal Republic of Germany / D.A. Fink // Law and State. –No. 3–4. – pp. 25–37.*

Uddin, J.A., Uddin, K.A., Sadat, A.S., Zuñiga, R. (2015). *Managing Strategies for Higher Education Institutions in the UK: An Overview. Higher Education for the Future, 2(1), 32-48.*

Wende, M.C. (2003). *Globalisation and Access to Higher Education. Journal of Studies in International Education, 7(2), 193-206.*

Айдрис И.А., Филиппов В.М. (2008). *Мировой рынок образовательных услуг. М.: РУДН, 26 лет.*

Воронин Денис Михайлович И Идрис Ринат Галимович (2018). *Анализ системы высшего образования Великобритании. Проблемы современного педагогического образования, (58-4), 50-54.*



Иркутская, В. И. (2011). ВТО и модернизация системы высшего образования в России. Вестник Томского государственного педагогического университета, (6), 45-47.

Ким Максим Юрьевич, Троицкий Евгений Флорентьевич (2016). Система высшего образования Республики Казахстан на основе национальных и международных рейтингов университетов. Газета Томского государственного университета, (411), 64-68.

Лукашенко М. А. (2004). Образовательная услуга и ее особенности на современном этапе социального развития. Статистика и экономика, (2), 5-13. 7. Павлова Наталья Анатольевна., Николаев Борис Викторович. (2015). Высшее образование в США: теоретические основы и тенденции развития. Газета Московского университета МВД России, (1), 213-216.

Потапов А. А., Хакимуллин Б. Р. (2017). Особенности системы образования в США. Форум молодых ученых, (9 (13)), 610-613. 9. Розенфельд, Ю. Н., Росчупкин, Г. В. (2006). Особенности системы высшего образования в Великобритании. Педагогика, психология, медико-биологические проблемы физической подготовки и спорта, (12), 141-143.

Чинаева Т. И. (2017). Основные тенденции международного рынка образовательных услуг. Статистика и экономика, 4 (1), 60-68.